

Tilshunoslikka kirish fanidan yakuniy nazorat savollari

- Tilning ichki jihatiga nima kiradi?
- Til birliklari qaysilar?
- Nutq birliklari qaysilar?
- Ifodalovchi (ifoda shakli) nima?
- Ifodalanuvchi (ifoda mazmuni) nima?
- Tillarni turiga ko'ra tasnif qilish qanday ataladi?
- Tillarni kelib chiqishiga ko'ra tasnif qilish qanday ataladi?
- Taniqli o'zbek tilshunoslari kimlar?
- O'zbek tilidagi qaysi tovushlar boshqa ko'pchilik tillarda yo'q?
- Til sistemasini tashkil etgan asosiy yaruslar:
- Odamning talaffuz apparati o'z ichiga olgan bo'shliqlarni aniqlang.
- Tilning gorizontal holatiga ko'ra unlilar necha guruhga bo'linadi?
- Unlilarning tarkibiga ko'ra turlarini aniqlang
- Nutqning fonetik birliklarini aniqlang.
- Dinamik urg'u qaysi tillarga xos?
- Erkin urg'u qaysi tillarga xos?
- Turg'un urg'u qaysi tilga xos?
- "Fonema" tushunchasi va terminini ilk bora taklif etgan olimni aniqlang.
- "Fonema" tushunchasi va terminini o'zbek tilshunosligida ilk bora qo'llagan olim?
- Orfografiyaning prinsiplarini aniqlang.
- Leksikologiya nimani o'rgatadi?
- Qaysi so'zlar leksik ma'noga ega bo'ladi?
- Leksikologiyada qaysi so'zlarning lug'aviy ma'nolari o'rganiladi?
- Mustaqil so'z turkumlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
- O'zbek tili qaysi til oilasiga mansub?
- XX asr umumiy tilshunoslik nazariyasining asoschisi kim?
- Sotsiolingvistika nimani o'rganadi?
- Tilshunoslik qachon alohida fan sohasi sifatida maydonga kirib keldi?
- Qaysi qatorda til oldi unlilari berilgan?
- Qaysi qatorda faqat chuqur til orqa undoshlari berilgan?
- Qaysi qatorda til orqa unlilari berilgan?
- Fonetika nimani o'rganadi?
- Qaysi qatorda jarangli undoshlar berilgan?
- Morfologik tasnifga ko'ra dunyo tillari nechta xil va ular qaysilar?
- Tillar qarindoshligini qaysi tasnif o'rganadi?
- Xalqaro bitimlar va shartnomalar o'zaro davlatlar o'rtasida 6 tilda imzolanadi va ular qaysilar?
- So'z oxirida tovush orttirilishi qanday nomlanadi?
- So'z o'rtasida tovush orttirilishi qanday nomlanadi?
- So'z boshidagi tovushning tushib qolish hodisasi qanday nomlanadi?
- So'z o'rtasidagi tovushning tushib qolish hodisasi qanday nomlanadi?
- So'z oxiridagi tovushning tushib qolish hodisasi qanday nomlanadi?
- Yaproq-yarpoq, daryo-dayro so'zlarida qanday fonetik hodisa yuz bergan?

Grafika bo'limi nimalarni o'rganadi?
Orfoepiya bo'limi nimalarni o'rganadi?
Tilshunoslik alohida fan sifatida qaysi asrda shakllandi?
Umumiy nazariy tilshunoslik asoslari kim tomonidan yaratildi?
Gumboldt tilning qaysi tomoni haqida ta'limot yaratdi?
Tilning sistem xarakterga ega ekanligiga dastavval kim e'tibor berdi?
Naturalizm tilga qanday hodisa sifatida qaraydi?
Naturalizm oqimining mashhur vakili kim?
Sovet davri tilshunosligi tilni materiyaga ko'ra qanday hodisa deb tushunadi?
Sovet davri tilshunosligida til paydo bo'lishiga ko'ra qanday hodisa deb tushuniladi?
Til, asosan, qanday vazifani bajaradi?
Fonema nazariyasi kim tomonidan yaratilgan?
Lingvistikaning qanday turlari mavjud?
Til birligining ikki jihati nimadan iborat?
Nutq nima?
"Umumiy tilshunoslik" fani qanday fan?
"Umumiy tilshunoslik" fani qanday muammolarni o'rganadi?
Jahon tilshunosligi tarixi o'z ichiga qaysi mashhur maktablarni qamrab olgan?
Tobe va hokim so'zning birikish usuliga ko'ra so'z birikmasi necha guruhga bo'linadi?
Hokim so'zning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasi nechaga bo'linadi?
Tobe so'zning qaysi gap bo'lagi bo'lib kelishiga ko'ra nechaga bo'linadi?
...bu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so'zlar kishilarning ichki tuyg'ulari, qahr-g'azablari, his- hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo'lgan, deb da'vo qiladilar. Bu qaysi nazariya?
Bu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, uni ilgari suruvchi olimlar ba'zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan. Bu qaysi nazariya?
Rasmlar yordamida muayyan fikr-axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligi natijasida vujudga kelgan yozuv qaysi?
«Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir» degan fikr kimga tegishli?
«Til – odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakatidir» degan fikr kimga tegishli?
«Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir» degan fikr kimga tegishli?
"Tilshunoslik nazariyasi" fani qanday fan?
"Tilshunoslik nazariyasi" fani qanday muammolarni o'rganadi?
Lingvistikaning qanday turlari mavjud?
Til birligining ikki jihati nimadan iborat?
Til, asosan, qanday vazifani bajaradi?
Tilning shakllanishida qanday nazariyalar ilgari surilgan?
Mehnat hayqiriqlari nazariyasini kim yaratgan?
Ijtimoiy kelishuv nazariyasi qachon paydo bo'lgan?

Qaysi nazariyada tildagi barcha soʻzlar kishilarning ichki tuygʻulari, qahrgʻazablari, his hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo boʻlgan deb hisoblaydi?

Maʼlum davrda aloqamunosabat vositasi sifatida mavjud boʻlib, keyingi davrlarda isteʼmoldan chiqib borgan til qanday til?

Standart til deb qanday tilga aytiladi?

Oʻz yozuviga ega boʻlmagan til qanday til?

ispan-nauatal tili qanday til?

Port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalaniladigan til qaysi til?

Umumiy tilshunoslik fanining asoschisi?

"soʻzning fikrga munosabati va yangi kontseptsiyalarni shakllantirish ... murakkab, sirli va yumshoq jarayondir" quyidagi fikr muallifi kim?

"aniq nutqda ichki nutq soʻzsiz gapirish" fikr muallifini toping?

XXI asrning boshlariga kelib oʻzbek tilshunoslari til va nutqning oʻzaro farqlarini nechtagacha yetgani taʼkidlanadi?

Tilning hajmi?

Til turgʻun, statik hodisa-nutq esa?

Til birliklarini sanang?

Konstruksiyaning nutqda ifodalanishida nima aks etadi?

Til birliklari qanday xususiyatga ega?

Nutq birliklari qanday xususiyatga ega?

“Soʻz oʻz tarkibiga kiruvchi tovushlarga bogʻliq boʻlmaydigan belgi yordamida ifodalanadi” bu qanday yozuv turiga mansub?

Soʻgʻd, pahlaviy, oʻrxun-yenisey (runik), uygʻur, arab kabi yozuvlar qaysi yozuv turi bilan bogʻliq?

Pahlaviy yozuvi

«Yenisey-oʻrxun yozuvi», «Sibir yozuvi», «Turkiy runik yozuv» qaysi yozuv turining nomi?

Mongoliyadagi Qoraqurum shahristoni xarobalaridan ikkita katta bitiktosh topib olgan kim?

Oʻzbek xalqi XX asr davomida qanday yozuvlardan foydalandi

Bu yozuv turidan foydalanuvchilar dunyo aholisining 10 % ini tashkil qiladi. Bu qaysi yozuv?

Bu yozuvdan dunyo aholisining 20 % foydalanadi. Bu qaysi yozuv?

Tovushlarning akustik (fizik) va fiziologik (biologik) xususiyatlarini oʻrganuvchi fan qaysi?

Gapdan katta birliklarni toping?

Tillarning tarixini oʻrganishi natijasida ularning qarindoshlik munosabatini va qarindoshlik darajasini belgilaydigan klassifikatsiya bu- ?

Avgust Shlegel tillarni nechta tipga ajratadi?

Avgust Shlegel qaysi asarida tillarni tiplarga ajratib oʻrgangan?

Amorf tillar qanday tillar hisoblanadi?

Agglutinatív tillar qanday tillar hisoblanadi?

Som va Hind-Yevropa tillari qanday til hisoblanadi?

Xitoy tili qanday til hisoblanadi?

Eskimos, aleut, chukot va Amerika hindilari qanday til hisoblanadi?

Bu tillarning tipologik xususiyati shundan iboratki, gap murakkab va qo'shma so'z shaklida bo'ladi. Bu qaysi tilning xususiyati?

Kim tillarni uch tipga ajratishda so'z tuzilishiga va gap sostavida so'zlarning o'zaro grammatik munosabatlarini ifodalovchi vositalarga asoslanadi?

Qaysi tilda so'z tartibining o'zgarishi bilan bir gapdan boshqa yangi gaplar hosil bo'ladi?

Qaysi tillarida tovushning pasayishi yoki ko'tarilishi morfologik ahamiyatga ega emas?

Qaysi tillarga turkiy va fin-ugor tillari oilasidagi mo'g'ul tillari, dravid tillari, bantu tillari, yapon va boshqa tillar kiradi?

Qaysi tilda bir affiks bir vaqtning o'zida bir necha grammatik ma'no ifodalashi mumkin?

Nutqning eng katta fonetik birligi?

Bo'g'inlar unli va undosh bilan boshlanib, tugashiga qarab necha xil bo'ladi?

Havo bulut edi. Ushbu gap nechta taktdan iborat?

Berkitilmagan ochiq bo'g'inli so'zni toping.

Til orqa burun sonori berilgan javobni belgilang.

Fon va fonemani bir-biridan ajratish nechanchi asrlarga to'g'ri keladi?

Nutq organlarini tovushlar hosil bo'lishidagi ishtirokiga ko'ra nechaga ajratamiz?

Tarkibida uchta tovush bo'lgan unlilar nima deb ataladi?

O'zbek tilida qaysi tovush til va tanglayning o'rta qismida hosil bo'ladi?

Qaysi javobda sirg'aluvchi «J» tovushi ishtirok etgan?

Suprasegment elementlarga nima(lar) kiradi?

Qaysi qatorda jarangsiz juftiga ega jarangli til undoshi berilgan?

Quyidagi qaysi til erkin urg'uli tillar sirasiga kiradi?

Fraza(gap) urg'usining nechta turi bor?

Ishchilarimizdan so'zida nechta eng kichik ma'no anglatuvchi bo'lak bor?

So'z yasovchi affiksial morf berilgan qatorni belgilang.

Prefiksial morf qatnashgan so'zni toping.

Tilshunoslik fanining tarixida so'z moddiy tarkibining o'zgarishi asosan necha yo'l deb keltirilgan?

Ton balandligining o'zgarishiga nima deyiladi?

Grammatik ma'no anglatuvchi affikslarni nechaga bo'lib o'rganamiz?

Qaysi tilda so'roq gaplarni faqat intonatsiya orqali ifodalash mumkin?

Grammatik ma'nolarni ifodalovchi analitik vositalarga nimalar kiradi?

Grammatik kategoriyalar ifodalanish usuliga ko'ra necha turga bo'linadi?

Qaysi tilda grammatik jins kategoriyasi yo'q?

Hozirgi kun grammatikalarida so'zlarni turkumlarga ajratishda asosan nechta belgiga asoslanadi?

So'zlarning sintaktik vazifasi deganda nima tushuniladi?

Lab-lab burun sonorini toping.

Yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlaridan qanday xususiyatlariga ko'ra farqlanadi?

Tilning turg'un birikmalarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi?

Qaysi qatorda qorishiq undosh tovush berilgan?

Qaysi qatorda faqat sirg'aluvchi undoshlar berilgan?

Narsa va hodisalarning makon va zamondagi o'zaro doimiy bog'lanishi asosida birining nomining boshqasiga ko'chishiga nima deyiladi?

Berkitilmagan yopiq bo'g'in berilgan so'zni toping.

Berkitilgan ochiq bo'g'in berilgan so'zni toping.

Tarkibida ikki tovush bo'lgan unlilar nima deb ataladi?

Til oldi yon sonorini toping.

Qaysi urg'uga ega bo'lgan tillarda urg'u olgan bo'g'indagi unli cho'ziqroq talaffuz qilinadi?

Ishlatilish maqsadiga ko'ra transkripsion yozuv qanday tur(lar)ga ajratiladi?

Agglyutinatив tillar sirasiga kirmaydigan tilni toping.

Qaysi amerikalik tilshunos olim tillarni 15 dan ortiq turga ajratgan?

O'zaro teng bog'langan so'zlarni belgilang.

Buyruq gaplar darak gaplardan qaysi jihaytdan farq qiladi?

Moslashuv yo'li bilan bog'langan so'z birikmasini toping.

Qo'shma gaplar o'z navbatida necha turga bo'linib ketadi?

Qaysi lugʻatlar fan va texnikaning maʼlum yoʻnalishiga bagʻishlangan boʻlib u ham izohli, ham tarjima lugʻati boʻlishi mumkin?

Pastfiks yordamida yasalgan soʻzlarni toping.

Arxaizmlar berilgan qatorni belgilang.

Tabu soʻzlar berilgan javobni belgilang.

Antonimlar berilmagan qatorni belgilang.

Butun qishloq uyquda. Ushbu gapda qanday maʼno koʻchishi kuzatilgan?